Хусусан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 12.01.2018 йилдаги 22-сон Қарори билан тасдиқланган “Электр энергиясидан фойдаланиш қоидалари”нинг 5 параграфида электр энергиясини ҳисобга олиш бузилганда ҳисоб-китобни амалга ошириш тартиби белгиланган.

Қоидаларнинг 117-бандида истеъмолчининг (маиший истеъмолчидан ташқари) айби билан электр энергиясини ҳисобга олиш приборига зарар етказилган (пломбаси бузилса, ойнаси синса ва бошқалар), электр энергиясини ҳисобга олиш приборини улаш схемаси ўзгартирилган, ҳисобга олиш асбобининг хотира блоки ва уни дастурлашдан фойдаланиш тугмасига (бўлмасига) ташқаридан таъсир кўрсатилган, электр энергиясини ҳисобга олиш приборидан ташқари электр қабул қилгичларни улаш ёки энергия бошқа усулда ўғирланган ҳолларда, ваколатли вакили белгиланган шакл бўйича қоида бузиш далолатномасини тузади. Ушбу далолатнома асосида Бюро ёки унинг тақдимномаси асосида ҳудудий электр тармоқлари корхонаси истеъмолчини электр тармоғидан узиб қўяди.

Ҳисобга олинмаган электр энергияси миқдорининг қиймати ҳудудий электр тармоқлари корхонаси томонидан Бюро билан биргаликда энергия таъминоти шартномасида кўрсатилган истеъмолчининг иш соатлари сони ҳисобга олинган

ҳолда электр қабул қилгичларнинг уланган қуввати бўйича қуйидаги ҳолатларда амалга оширилади:

электр энергиясини ҳисобга олиш прибори, ўлчов трансформаторларини улаш схемалари ўзгартирилганда, ҳисобга олиш асбобининг хотира блоки ва уни дастурлашдан фойдаланиш тугмасига (бўлмасига) ташқаридан таъсир кўрсатилганда ва ҳисобга олишни назорат қилиш асбобларидан ташқари электр қабул қилгичлар кўз билан аниқлаб бўлмайдиган яширин йўл билан (яширин электр симлари, переключателлар монтаж қилиниши ва шу кабилар) уланганда — электр энергияни ҳисобга олишнинг назорат асбоблари охирги алмаштирилган ёки уланиш схемалари текширилган кундан бошлаб, бироқ даъво муддатидан ортиқ бўлмаган муддатда;

электр энергиясини ҳисобга олиш приборига истеъмолчининг айби билан зарар етказилганда (пломбаси бузилишига йўл қўйилган, ойнаси синган ва шу каби ҳолатлар) ёки электр энергияси айланиб чиқишда кўз билан аниқлаш мумкин бўлган бошқа усулда ўғирланган тақдирда — охирги марта айланиб чиқилган кундан бошлаб, бироқ даъво муддатидан ортиқ бўлмаган муддатда амалга оширилади.

Ҳисобга олинмаган электр энергияси миқдори қийматини ҳисоб-китоб қилишда қоида бузиш аниқланишидан олдинги давр учун амалдаги тўловлар ҳисобга олинган ҳолда, қайта ҳисоб-китоб амалга оширилаётган вақтдаги тариф қўлланилади.

Истеъмолчилар (шу жумладан маиший истеъмолчилар) электр қурилмаларини ҳудудий электр тармоқлари корхонасининг электр тармоқларига ўзбошимчалик билан улаган тақдирда, электр қурилмалари электр тармоғидан дарҳол узиб қўйилади, истеъмолчидан эса рухсатсиз истеъмол қилинган электр энергиясининг қиймати истеъмолчи расмий равишда давлат рўйхатидан ўтказилган кундан бошлаб ўтган вақт мобайнида (тасдиқловчи ҳужжатлар мавжуд бўлганда) ёки даъво муддати учун электр энергиясини қабул қилгич қурилманинг уланган қувват бўйича суткасига 24 соат давомида ишлаши

ва ўзбошимчалик билан уланган электр тармоғи (электр узатиш линияси ва трансформаторлар) участкасида йўқотилган қувват ҳисобидан ундирилади.

Ҳисобга олинмаган электр энергияси қийматини ундириш учун электр энергиясидан фойдаланиш қоидалари бузилишига йўл қўйган истеъмолчи ёки унинг вакили иштирокида ёки унинг иштирокисиз, белгиланган тартибда қайта ҳисоб-китоб амалга оширилади.

Электр энергиясини ҳисобга олиш истеъмолчининг айбисиз вақтинчалик бузилганда етказиб берилган электр энергияси учун ҳисоб-китоб Бюрони хабардор қилган ҳолда, ҳудудий электр тармоқлари корхонасининг қарори бўйича, ҳисобга олиш бузилишига қадар бўлган олдинги ҳисоб-китоб давридаги ёки ҳисобга олиш тиклангандан кейинги даврдаги ўртача суткалик сарф бўйича амалга оширилади.

Электр энергиянинг ўртача суткалик сарфи бўйича ҳисоб-китоб қилиш даври бир ойдан ошмаслиги керак ва шу вақт ичида ҳисобга олиш тикланиши зарур.

Агар, электр энергияни ҳисобга олиш приборини объектив сабабларга кўра, кўрсатилган муддатда (ўлчаш трансформаторининг, ҳисобга олиш приборининг йўқлиги, ўтиб бўлмайдиган йўллар ва шу кабилар туфайли) тиклаш имконияти бўлмаса, истеъмолчига етказиб берилган электр энергияси учун ҳисоб-китоб қилиш тартиби ва ҳисобга олишни тиклаш муддати истеъмолчи ва ҳудудий электр тармоқлари корхонасининг ўзаро келишуви билан белгиланади.

Маиший истеъмолчида электр энергиясини ҳисобга олиш приборини улаш схемаси ўзгарганда, приборга зарар етказилганда (истеъмолчининг айби билан) ёки пломбалари бузилганда, ҳисобга олиш асбобининг хотира блоки ва уни дастурлашдан фойдаланиш тугмасига (бўлмасига) ташқаридан таъсир кўрсатилганда, электр энергиясини ҳисобга олиш приборларидан ташқари бошқа электр қабул қилгичлар уланганда ва амалда истеъмол қилинган электр энергияси кўрсаткичларини камайтириш мақсадида бошқа қоида бузишларга

йўл қўйилганда, Бюронинг вакили қоида бузилиши ҳақида белгиланган намунада далолатнома тузади.

Далолатнома асосида:

электр энергиясини ҳисобга олиш прибори, ўлчов трансформаторлари уланиши, ҳисобга олиш асбобининг хотира блоки ва уни дастурлашдан фойдаланиш тугмасига (бўлмасига) ташқаридан таъсир кўрсатилиши ва ҳисобга олишни назорат қилиш приборларидан ташқари электр қабул қилгичлар кўз билан кўриб аниқланмайдиган яширин йўл билан (яширин электр симлари, ўзгартириш мосламалари монтаж қилиниши ва шу кабилар) уланиш схемалари ўзгарган тақдирда — ҳисобга олишнинг назорат асбоблари охириги алмаштирилган ёки уланиш схемалари текширилган кундан бошлаб, бироқ даъво муддатидан ортиқ бўлмаган муддатга;

электр энергиясини ҳисобга олиш приборига зарар етказилганда (истеъмолчининг айби билан) ёки прибор мавжуд бўлмаганда, пломбалар бузилган ва амалда истеъмол қилинган электр энергияси кўрсаткичларини камайтириш мақсадида айланиб чиқишда кўз билан кўриб аниқланадиган бошқа қоида бузишларга йўл қўйилган тақдирда (шу жумладан, электр энергиясини ҳисобга олиш приборидан бошқа электр қабул қилишлар уланганда) — охириги марта айланиб чиқилган кундан бошлаб, бироқ даъво муддатидан ортиқ бўлмаган муддатга ҳисобга олинмаган электр энергияси миқдори қиймати ҳисоб-китоб қилинади.

Қоида бузилган ҳолда фойдаланилган электр энергияси қийматини қайта ҳисоб-китоб қилиш ушбу Қоидаларнинг 120-бандига мувофиқ маиший истеъмолчида штепсел розеткалари мавжуд бўлганда (розеткалар ва электр энергияси қабул қилгичлар сонидан қатъи назар) бир суткада 24 соат 600 Вт қувватдан фойдаланиш ҳисобидан, 600 Вт дан ортиқ қувватли иситиш асбоблари ёки бошқа электр асбоб-ускуналари мавжуд бўлганда эса — маиший истеъмолчи фойдаланаётган электр энергияси қабул қилгичлардан бир суткада 24 соат фойдаланиш ҳисобидан келиб чиқиб, уларнинг амалдаги қуввати бўйича амалда

ёритиш электр энергияси қабул қилгичлардан сутканинг ёруғ бўлмаган вақтида фойдаланиш ҳисобидан келиб чиқиб, ёритиш электр қабул қилгичларнинг қуввати бўйича амалга оширилади.

Ҳисобга олинмаган электр энергиясининг қайта ҳисоб-китоби белгиланган тартибда, бироқ даъво муддатидан ортиқ бўлмаган муддатга, электр энергиясидан фойдаланиш қоидалари бузилишига йўл қўйган истеъмолчи ёки унинг вакили иштирокида ёхуд иштирокисиз ҳудудий электр тармоқлари корхонаси томонидан Бюро билан биргаликда қоида бузиш аниқланишидан олдинги давр учун амалда тўланган электр энергия миқдори ҳисобга олинган ҳолда амалга оширилади.

Электр энергиясидан фойдаланишда истеъмолчи томонидан йўл қўйилган қоидабузилишлар Бюронинг вакили ва маиший истеъмолчи томонидан имзоланган икки нусхадаги далолатнома билан расмийлаштирилади, унинг бир нусхаси маиший истеъмолчига берилади ва Бюро ёки унинг тақдимномаси асосида ҳудудий электр тармоқлари корхонаси томонидан ушбу Қоидаларни бузган истеъмолчи электр қурилмалари тармоқдан узиб қўйилади.

Истеъмолчи далолатномани имзолашни рад этган тақдирда, қоида бузиш далолатномасида истеъмолчини таништирганлик тўғрисида белги қўйилади.

Ҳисобга олинмаган электр энергияси миқдори далолатнома асосида аниқланади ва тўлаш учун маиший истеъмолчига қўшимча тўлов ҳужжати ёзиб берилади.

Қоида бузилиши юзасидан тўлов ҳужжатини ёзишда амалдаги тариф қўлланади.

Маиший истеъмолчи белгиланган тартибда Бюро ва ҳудудий электр тармоқлари корхонасининг қарори юзасидан эътироз билдириш ҳуқуқига эга, бироқ бу уни қоида бузиш далолатномаси бўйича ёзилган қўшимча тўлов ҳужжатини белгиланган муддатда тўлашдан озод қилмайди.

Кўшимча тўлов ҳужжати бўйича ҳақ 10 кун муддатда тўланмаса, Бюро маиший истеъмолчидан кўрсатилган суммани мажбурий тартибда ундириш тўғрисида судга даъво аризаси беради.

Амалга оширилган электр энергияси сарфининг қайта ҳисоби истеъмолчини электр энергиясидан фойдаланиш қоидаларини бузганлик учун қонун ҳужжатларида белгиланган жавобгарликдан озод этмайди.

Бундан ташқари, Вазирлар Маҳкамасининг 09.03.1994 йилдаги 124-сон Қарори билан тасдиқланган “Ёқилғи-энергетика ресурсларидан фойдаланиш қоидаларини бузганлик учун иқтисодий жазоларни қўллаш тўғрисида”ги Низомда электр, газдан фойдаланиш қоидаларини бузганлик учун юридик шахсларга нисбатан, улар қайси идорага қарашлилиги ва мулкчилик шаклидан қатъий назар иқтисодий жазоларни қўллаш белгиланган.

Ушбу қоидалар қайта ҳисоб-китоб ёки иқтисодий жазоларни қўллаш қоидалари бўлиб, бу турдаги жиноятлар натижасида етказилган ҳақиқий зарарни аниқлаш имконини бермайди.

Мавжуд жиноят ишлари таҳлили суриштирув ҳамда тергов органлари томонидан юқорида байн этилган тартибга амалга қилинмасдан, электр энергиясидан фойдаланиш қоидаларини бузиш билан боғлиқ жиноят ишлари бўйича зарар миқдорини аниқлашда тармоққа ноқонуний уланиш вақти, ҳақиқатдан электр энергиясини ноқонуний истеъмол қилиш даври аниқланмасдан, қоидаларда белгиланган умумий тартибга асосан ҳисобланган қайта-ҳисоб китоб миқдори зарар сифатида нотўғри баҳоланаётганини кузатиш мумкин.

Хусусан, энергия ресурслари таъминоти корхонаси мутахассислари томонидан расмийлаштирилган қайта ҳисоб-китоб далолатномасидаги истеъмолчи томонидан тўланиши лозим бўлган сумма суриштирувчи томонидан жиноят оқибатида етказилган зарар сифатида баҳоланмаслиги, балки қайта-ҳисоб китобга асосланган ҳолда сарфланган энергия ресурсларининг ҳақиқий миқдори аниқланишини лозим.

Мисол учун, текширишда яшаш хонадонидан ўтказилган текширишда, хонадон эгаси томонидан тегирмон ускунаси ўзбошимчалик билан электр тармоғига улангани аниқланган.

Туман электр тармоқлари корхонасининг қайта ҳисоб-китоб далолатномасида, хонадон эгаси томонидан электр энергиясидан ноқонуний фойдаланилганлиги ҳолати бўйича амалдаги қоидаларга асосан бутун даъво муддати даври яъни 3 йил (1095 кун) учун **205,6 млн.** сўм миқдоридан зарар етказилгани кўрсатилган.

Суриштирувчи томонидан ушбу қайта ҳисобланган сумма зарар сифатида баҳоланиб, ЖКнинг 185²-моддаси 3-қисми билан жиноят иши қўзғатилган.

Дастлабки терговда хонадон эгасининг тегирмон ускунасидан 257 кун давомида фойдаланилгани аниқланиб, мутахассисларнинг хулосасига кўра етказилган зарар **20,2 млн.** сўмни ташкил этган.

Оқибатда, жиноят ишини ЖПКнинг 83-моддаси 2-бандига асосан тугатиш тўғрисида қарор қабул қилинган ва ҳуқуқбузар Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекснинг 101-моддаси билан маъмурий жавобгарликка тортилган.

Ўз навбатида, бу турдаги жиноят ишларини тергов қилишда ишнинг муайян ҳолатларидан келиб чиқиб, ҳуқуққа хилоф қилмиш оқибатида ҳақиқатда қанча миқдорда моддий зарар етказилганлигини аниқлаш учун барча чораларни кўриш зарур.

Бунда бир қатор ҳолатларга алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади, чунончи:

1. Умумий фойдаланишдаги электр энергияси тармоқларига ўзбошимчалик билан уланиш, электр энергиясини ҳисобга олиш асбобларига, шу жумладан уларнинг пломбаларига қасддан шикаст етказиш, бундай ҳисобга олиш асбобларининг кўрсаткичларини ўзгартириш мақсадида уларга ташқаридан аралаштириш деб баҳоланадиган ҳуқуққа хилоф ҳаракатнинг бошланган вақти, жойи ва давомийлиги.

Электр таъминоти корхонаси мутахассислари ҳуқуққа хилоф ҳаракатнинг бошланган вақтига аниқлик киритмасдан, назоратчи охирги марта ҳисобга олиш ускунасини кўриқдан ўтказган кундан бошлаб, бироқ даъво муддатидан ортиқ бўлмаган муддатни инобатга олган ҳолда электр энергиясидан фойдаланиш қоидалари бузилгани туфайли қайта ҳисоб-китоб далолатномасини тузишади.

Бошқа қонун ҳужжатларида белгиланган даъво муддати жиноят процессидаги фуқаровий даъвога нисбатан қўлланилмаслиги, бу тоифадаги жиноят ишларини тергов қилишда эътибордан четда қолмаслиги лозим.

Жиноят-процессуал қонунчилигига мувофиқ, ҳар бир жиноятнинг вақти ва жойини исботлаш шахсни айбланишнинг энг муҳим асосларидан биридир.

Ҳуқуққа хилоф ҳаракатнинг бошланган вақти ва давомийлигига аниқлик киритиш, ноқонуний истеъмол қилинган электр энергиясининг ҳақиқий ҳажмини аниқлаш имконини беради.

2. Жиноий ҳодиса юз берганидан сўнг, воқеа жойида фойдаланилган ускуналарнинг сони, энергия истеъмол қилиш имкониятларининг мавжудлиги, қуввати ва фойдаланиш давомийлиги.

Электр энергияси ўзига хос товар, шу боис улар турли хил ускуналардан фойдаланишни тақозо этади.

Ҳуқуққа хилоф ҳаракат бошланганидан сўнг ноқонуний фойдаланилган электр энергияси айнан қандай ускуналар учун йўналтирилгани, эксплуатация қилинган ускуналар сони, уларни энергия истеъмол қилиш қувватига алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Шу билан бирга, фойдаланилган ускуналарнинг энергия истеъмол қилиш даври (сутканинг қайси пайтлари, ҳафтанинг қайси кунлари) ҳам жиноят оқибатида етказилган зарар миқдорига аниқлик киритишда муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланишга яроқсиз ёки бошқа сабаблар билан фойдаланиш имкони бўлмаган ускуналарни энергия қабул қилувчи сифатида баҳоламаслик мақсадида, ускуналарнинг энергия истеъмол қилиш имкониятлари мавжудлигига ҳам алоҳида эътибор қаратиш мақсадга мувофиқ.

Айрим ускуналар (сув насослари, хонани иситиш учун мўлжалланган печлар ва бошқалар) хусусиятига қараб, йилнинг маълум бир мавсумида фойдаланилади, электр энергиясини истеъмол қилиш даврини инобатга олиш ҳам жиноят оқибатида етказилган зарарнинг ҳақиқий миқдорини аниқлашда муҳим ҳисобланади.

3. Жиноий ҳодиса юз берган вақтда электр таъминоти корхонаси томонидан электр энергияси етказиб берилишидаги узилишлар ҳақида маълумотларни олиш.

Электр таъминоти корхоналари томонидан тармоқдаги таъмирлаш, авария ҳолатлари вужудга келганда ёки режали узилганда истеъмолчига электр энергияси етказиб берилмайди.

Ҳар бир электр таъминоти корхонасида истеъмолчиларни таъминотдан режали ва режадан ташқари узиб қўйишнинг ҳисоби юритилади. Шу сабабли етказилган зарарнинг ҳақиқий ҳажмини аниқлаш мақсадида ушбу маълумотлар олиниши ва ўрганилиши мақсадга мувофиқ.

Электр энергияни етказиб берилишидаги узилишлар ҳақида маълумотлар олинмаслиги ва таҳлил қилинмаслиги, ҳуқуққа хилоф ҳаракатни содир этган шахсга нисбатан истеъмол қилинмаган электр энергия миқдорининг ҳисобланишига олиб келиб, жиноят оқибатида етказилган зарарнинг ҳақиқий миқдорини аниқлашга салбий таъсир қилади.

4. Истеъмолчи томонидан ишлаб чиқарилган, тайёрланган маҳсулотга нисбатан сарфланган электр энергия коэффицентига аниқлик киритиш.

Тайёрланган ёки ишлаб чиқарилган маҳсулотга нисбатан сарфланган электр энергияси миқдорини фойдаланилган ускуналар сони, уларни энергия истеъмол қилиш қувватини инобатга олган ҳолда малакали мутахассисларни жалб қилган ҳолда ҳисоблаш имконияти мавжуд.

5. Қоидаларнинг бузилиши оқибатида ноқонуний фойдаланилган электр энергияси миқдори ҳуқуқбузарлик содир этилган пайтдаги тарифдан келиб чиққан ҳолда ҳисобланиши.

Электр энергиясидан фойдаланиш қоидаларининг 123-бандида, қоида бузилиши юзасидан тўлов ҳужжати эътиборда амалдаги тариф қўлланиши кўрсатилган.

Шу каби, Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 27.12.2016 йилдаги “Жиноят натижасида етказилган мулккий зиённи қоплашга оид қонунчиликни қўллаш бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги 26-сонли Қарорида, жиноят объекти бўлган мол-мулк қийматини аниқлашда унинг мулкдор томонидан орттирилиши (сотиб олиниши) ҳолатларига қараб, жиноят содир этилган пайтдаги шартномавий, улгуржи, чакана, биржа ёки бозор нархидан келиб чиқиш лозимлиги кўрсатилган.

Шу боис, қоидаларни бузилиши оқибатида ноқонуний фойдаланилган энергия ресурслари ва ичимлик сувининг миқдори, тариф ўзгарган санагача ўртача истеъмол сарфи бўйича аниқланиб, қилмиш содир этилган вақтда амалда бўлган тариф бўйича ҳисобланишига алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади.

Изданиш натижасига кўра, ноқонуний фойдаланилган электр энергияси миқдорини аниқлаш борасида “Электр энергиясидан фойдаланиш қоидалари”нинг 123-бандига куйидаги мазмундаги бешинчи хатбоши билан тўлдириш мақсадга мувофиқ:

“Ҳисобга олинмаган электр энергиясининг қайта ҳисоб-китоби натижасидан ҳисобланган миқдор электр энергиясидан ноқонуний фойдаланиши оқибатида таъминотчи корхона манфаатларига етказилган зарарни ҳисоб китоб қилишда асос ҳисобланади. Электр энергиясидан фойдаланиш қоидаларини бузиш билан боғлиқ ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, олдини олиш ва бартараф этиш вазифаси юклатилган давлат органлари ўз ваколатлари доирасида таъминотчи корхонага етказилган зарар миқдори қўшимча текширувлар орқали аниқланади.”

Шу каби, Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги 2020 йил 24 ноябрдаги ПФ-6118-сон Фармонида

асосан энергия Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг айрим қарорларига ўзгартириш ҳамда қўшимчалар киритиш лозим.

Хусусан, мазкур қарорга асосан 2021 йил 1 мартдан электр, иссиқлик энергияси, газ, водопроводдан фойдаланиш қоидаларини бузиш билан боғлиқ жиноятларни аниқлаш, бартараф этиш ва уларнинг олдини олиш вазифаси — Бош прокуратура ҳузуридаги Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш департаменти ва унинг ҳудудий бўлинмалари томонидан амалга оширилиши;

маъмурий ҳуқуқбузарликларни аниқлаш, бартараф этиш ва уларнинг олдини олиш вазифаси — ички ишлар органлари томонидан амалга оширилиши белгиланган.

Жумладан, Вазирлар Маҳкамасининг Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 10 июлдаги 484-қарори, 2018 йил 12 январдаги 22-сон қароридан электр, иссиқлик энергияси, газ, водопроводдан фойдаланиш қоидаларини бузиш билан боғлиқ қоидабузарликларга қарши курашиш борасидаги нормалардан Бюро ваколатларини чиқариш, тегишинча Иқтисодий жиноятларга қарши курашиш ҳамда ички ишлар органларига юклатиш тўғрисидаги нормалар билан тўлдириш лозим (норматив ҳужжат лойиҳаси, таққослама жаадвал илова қилинади).

Шунингдек, Энергия ресурсларидан ноқонуний фойдаланиш билан боғлиқ қонунбузарликлар салмоғи ортиб бормоқда. Бош прокуратура томонидан 2022 йил ва жорий йилнинг ўтган даври юзасидан электр энергияси ва табиий газдан фойдаланиш қоидаларини бузганлик ҳолатлари бўйича 433 жиноят иши қўзғатилган. Оқибатда давлат манфаатларига 368,1 миллиард сўм моддий зарар етказилган. Энергия ресурсларидан ноқонуний фойдаланганлик учун жавобгарлик чораларининг етарли эмаслиги давлатга катта миқдорда зарар етказган шахсларга нисбатан тегишли чоралар кўриш имкониятини бермаяпти. Шу сабабли энергия ресурсларидан ноқонуний фойдаланганлик, бу борадаги ваколатли органларнинг кўрсатмаларини бажармаганлик ҳолатлари учун жавобгарлик чораларини кучайтириш зарурати вужудга келмоқда.

Фойдаланилган норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 ноябрдаги “Суд ҳужжатлари ва бошқа органлар ҳужжатларини ижро этиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 6118-сон Фармони
2. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси.
3. Ўзбекистон Республикасининг Жиноят-процессуал кодекси
4. Ўзбекистон Республикаси Ма’мурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси.
5. Ўзбекистон Республикаси Фуқаролик кодекси. 169-модда. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 08.11.2022 й., 03/22/801/0998-сон.
6. Ўзбекистон Республикасининг 31.10.1990 йилдаги “Ўзбекистон Республикасида мулкчилик тўғрисида”ги 152-ХП-сон қонуни. 3-модда. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 21.04.2021 й., 03/21/683/0375-сон

Фойдаланилган интернет сайтлари.

- 2.1. <https://lex.uz/docs/111466>
- 2.2. <https://lex.uz/docs/-111453>
- 2.3. <https://lex.uz/docs/111460>
- 2.4. <https://lex.uz/docs/97664>
- 2.5. <https://lex.uz/docs/3517337>

CULTURAL INTERACTIONS BETWEEN ANDRONOVO CULTURE AND OXUS CIVILIZATION

Umidulla Isarov

PhD student of Termez State University

isarovu@tersu.uz

ABSTRACT: *The article "Cultural Interactions between Andronovo Culture and Oxus Civilization" explores the dynamic exchanges that occurred between these two prominent Bronze Age cultures in ancient Central Asia. The Andronovo culture, prevalent in western Central Asia, and the Oxus civilization, flourishing in the southern part of the region, coexisted in close geographical proximity, fostering trade networks, technological exchange, and artistic influences. The study delves into the archaeological evidence, artifacts, and settlement patterns to uncover the extent and nature of their interactions.*

KEYWORDS: *Andronovo culture, Oxus civilization, Cultural interactions, Bronze Age, Trade networks, Artistic exchange, Archaeological evidence, Religious influence, Settlement patterns, Socio-economic structures, Decline and disappearance, Geographical proximity, Cultural dynamics.*

INTRODUCTION

The cultural landscape of ancient Central Asia was marked by a rich tapestry of civilizations, each contributing to the region's historical legacy. Among the prominent cultures that thrived during the Bronze Age were the Andronovo culture and the Oxus civilization. Geographically situated in close proximity, these two civilizations engaged in extensive cultural interactions that shaped their societies and left a lasting impact on subsequent civilizations in the region. [11]

The Andronovo culture flourished in the western part of Central Asia, covering vast territories that encompassed present-day Kazakhstan, southern Russia, and parts of Central Asia. Known for its pastoral lifestyle and metallurgical expertise, the Andronovo culture was a significant force in the Bronze Age cultural landscape. [2]

In contrast, the Oxus civilization, also referred to as the Bactria-Margiana Archaeological Complex (BMAC), thrived in the southern regions of Central Asia, including present-day Turkmenistan, northern Afghanistan, and parts of Uzbekistan and Tajikistan. The Oxus civilization's strategic position along the Silk Road made it a pivotal hub for trade, facilitating connections between the East and West. [3]

This article delves into the cultural interactions between the Andronovo culture and the Oxus civilization, exploring the multifaceted exchanges that occurred during their coexistence. Through an examination of archaeological evidence, artifacts, settlement patterns, and historical records, we aim to illuminate the nature and extent of their interactions.

The first section of the article explores the trade and economic ties that fostered cultural exchange between these two civilizations. The geographical proximity and the Oxus civilization's role as a critical link along the Silk Road facilitated the movement of goods, technologies, and ideas between the Andronovo culture and distant regions. [10, 13] Next, the article investigates the artistic and technological exchange between the Andronovo culture and the Oxus civilization. Pottery, metalwork, and other artifacts serve as tangible evidence of the transfer of artistic styles and craftsmanship, illustrating the fusion of cultural elements.

Furthermore, the study delves into possible religious and ideological influences resulting from their cultural interactions. [1] The exchange of religious practices, rituals, and symbols possibly led to the development of syncretic expressions of belief systems, reflecting the dynamic nature of their cultural coexistence.

The impact of the Andronovo culture and the Oxus civilization on subsequent civilizations in Central Asia is another focal point of this article. The enduring legacies

of their cultural interactions on later societies emphasize the significance of their historical coexistence.

METHODS

To explore the cultural interactions between the Andronovo culture and the Oxus civilization, this article employs a multidisciplinary research approach, incorporating various methods to provide a comprehensive understanding of the subject matter. The following methods have been utilized: archaeological excavations, artifact analysis, comparative studies, literature review, geographical mapping, historical records: (inscriptions, and ancient texts), interdisciplinary approaches, synthesis and interpretation. By combining these methodologies, this article presents a comprehensive analysis of the cultural interactions that occurred during the coexistence of the Andronovo culture and the Oxus civilization in ancient Central Asia. The integration of various research methods enhances the robustness of the findings, allowing for a nuanced exploration of the complex historical relationship between these two civilizations.

RESULTS

The study reveals extensive trade and economic ties between the Andronovo culture and the Oxus civilization. The Oxus civilization's strategic location along the Silk Road facilitated the movement of goods, technologies, and ideas between the two cultures. [4] Archaeological evidence, including the presence of shared artifacts and materials, indicates a flourishing trade network that contributed to cultural exchange.

Analysis of artifacts from both civilizations demonstrates a transfer of artistic styles and technological innovations. Pottery styles, metalworking techniques, and architectural designs exhibit similarities and shared influences. This suggests a substantial exchange of craftsmanship and artistic ideas between the Andronovo culture and the Oxus civilization. [9]

The study suggests the possibility of religious and ideological influences resulting from cultural interactions. Archaeological findings indicate a blending of religious symbols and practices, suggesting syncretism and the adoption of elements from each

other's belief systems. This cultural exchange likely contributed to the emergence of unique expressions of spirituality.

The study of settlement patterns reveals contrasting societal structures. The Andronovo culture, primarily pastoral and semi-nomadic, had smaller settlements, whereas the Oxus civilization developed urban centers with larger settlements. The interactions between these diverse settlement patterns likely impacted each other's socio-economic structures.

The cultural interactions between the Andronovo culture and the Oxus civilization had a lasting impact on subsequent civilizations in Central Asia. Elements of their cultural exchange can be traced in later societies, demonstrating the significance of their historical coexistence in shaping the region's cultural heritage.

The study offers insights into the factors contributing to the decline and eventual disappearance of both civilizations. Environmental changes, economic shifts, or migrations possibly affected their cultural dynamics. [5, 8] Understanding the reasons behind their decline provides valuable context for comprehending the complexities of their cultural interactions.

The geographical proximity of the Andronovo culture and the Oxus civilization played a crucial role in facilitating their cultural interactions. [12] Their close proximity allowed for regular communication, trade, and cultural exchanges.

In conclusion, the results of this study illuminate the multifaceted cultural interactions between the Andronovo culture and the Oxus civilization during the Bronze Age in Central Asia. The evidence of trade, artistic exchange, possible religious influences, and the impact on subsequent civilizations highlights the significance of their historical coexistence. The study provides valuable insights into the complexities of cultural dynamics in ancient Central Asia, enhancing our understanding of the interconnectedness of civilizations in the region. **DISCUSSION**

The study of cultural interactions between the Andronovo culture and the Oxus civilization in ancient Central Asia offers a fascinating exploration of the dynamics between two significant Bronze Age civilizations. The findings reveal a complex web

of trade, artistic exchange, religious influences, and the impact on subsequent cultures. These discussions shed light on the broader implications and historical significance of their coexistence.

The extensive trade networks between the Andronovo culture and the Oxus civilization played a pivotal role in their cultural interactions. The presence of shared artifacts and materials indicates regular exchanges along trade routes, highlighting the interconnectedness of these civilizations and their engagement with other distant regions. [14] This cross-cultural trade contributed to the flow of goods, technologies, and ideas, fostering a vibrant cultural exchange that enriched the societies involved.

The possibility of religious and ideological influences resulting from cultural interactions is an intriguing aspect of the study. The blending of religious symbols and practices suggests a syncretic expression of belief systems, reflective of the openness and receptiveness of both civilizations to adopting elements from each other's spiritual traditions. This syncretism likely contributed to the development of unique religious expressions and spiritual syntheses. [15]

The study of settlement patterns and urbanism indicates contrasting societal structures between the Andronovo culture and the Oxus civilization. The interactions between these different settlement patterns likely led to the exchange of socio-economic practices and influenced each other's social organization. [6] The coexistence of these diverse societies enriched the cultural landscape of Central Asia, promoting a dynamic and diverse socio-economic fabric.

In conclusion, the discussions surrounding the cultural interactions between the Andronovo culture and the Oxus civilization offer a compelling narrative of ancient Central Asia's vibrant history. The findings highlight the interconnectedness of civilizations through trade, the impact of artistic and religious exchanges, and the enduring legacy on subsequent cultures. [7] This study contributes to our understanding of the complex interplay between ancient societies and underscores the importance of cultural interactions in shaping the course of history in Central Asia. The continued

exploration of these interactions promises to unveil even more insights into the rich tapestry of cultural dynamics in this ancient region.

CONCLUSION

The results of this study have revealed the central role of trade and economic ties in fostering cultural interactions. The Oxus civilization's position along the Silk Road facilitated the movement of goods, technologies, and ideas, creating a conduit for cross-cultural exchange with the Andronovo culture and other distant regions. The extensive trade networks connected these civilizations, enriching their material cultures and promoting technological advancements. Religious and ideological influences also emerged as a compelling aspect of their cultural interactions.

In conclusion, the cultural interactions between the Andronovo culture and the Oxus civilization in ancient Central Asia offer a captivating narrative of the region's vibrant past. Their exchanges, trade networks, artistic influences, and religious syncretism have enriched our understanding of the interconnectedness of ancient civilizations. The legacy of their coexistence continues to shape the cultural heritage of Central Asia, a testament to the transformative power of cultural exchange throughout history. Through continued research and exploration, the story of these ancient civilizations promises to unfold further, providing valuable insights into the complexities of human interactions and the development of human societies.

REFERENCES

1. Alimovich, I. M. (2021). The Role of Avesta in Reconstructing the Historical Geography of Ancient Bactria. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(9), 70-72.
2. Avanesova, N. A., & Askarov, A. A. (1991). *Культура пастушеских племен эпохи бронзы Азиатской части СССР: по металлическим изделиям*.
3. Bakiev, A., & Yuldasheva, Z. (2020). The fifth civilization of the Ancient East. *Theoretical & Applied Science*, (8), 39-45.

4. Bonora, G. L. (2020). The Oxus Civilization and the northern steppes. In *The World of the Oxus Civilization* (pp. 734-775). Routledge.
5. Chorshanbievich, K. T. (2020). Some Reviews about the Northern Border of Bactria. *International Engineering Journal for Research & Development*, 5, 5.
6. Grigoriev, S. (2021). Andronovo problem: studies of cultural genesis in the Eurasian Bronze Age. *Open Archaeology*, 7(1), 3-36.
7. Isarov U. I. Reviews About Early Nomads In Central Asia //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 18-26. Doi: 10.37547/tajjir/Volume02Issue09-03
8. Isarov, U. (2023, January). Migrations of Dakh tribes in Central Asia. In international scientific conference "innovative trends in science, practice and education" (Vol. 2, No. 1, pp. 56-65).
9. Isarov, U. I. (2019). Reviews of Bactrian irrigation system in the Bronze age. *Ўтмишга назар журнали*, 17(3), 25-31.
10. Kholiyarov, T. C. (2019). About new studies of historical geography on historical studies of northern Bactria. *Ўтмишга назар журнали*, 20(2).
11. Lyonnet, B., & Dubova, N. A. (Eds.). (2020). *The World of the Oxus civilization*. Routledge.
12. Poyonov, A. B. (2023). Ancient Bactria in greek sources. *Scholar*, 1(17), 121-127.
13. Tulkinjon, K. (2020). About historiography of historical geography of northern Bactria. *Journal of Critical Reviews*, 7(18), 748-758.
14. Аванесова, Н. А. (1979). Проблемы истории андроновского культурного единства (по металлическим изделиям). Л.: ЛГУ.
15. Аскарлов, А. (2005). Арийская проблема: новые подходы и взгляды. Издательство "ФАН", Ташкент.

CULTURAL INTERACTIONS IN CENTRAL ASIA DURING THE PERIOD OF THE ACHAEMENID EMPIRE

Munavar Alimovich Irkayev

Teacher of Termez State University

irkayevm@tersu.uz

***Abstract:** This article explores the multifaceted cultural interactions that took place between the Achaemenid rulers and the local populations in the region. Drawing on historical sources, archaeological findings, and cultural evidence, the study sheds light on the religious, linguistic, artistic, and administrative exchanges that occurred along the Silk Road and the Royal Road, which connected the heart of the empire to the distant corners of Central Asia. The article emphasizes the significance of trade networks, administrative policies, and the movement of people in facilitating this cultural synthesis. While examining the assimilation of Persian religious practices, architectural styles, and administrative systems, the study also highlights the resilience of local cultures and the emergence of unique syncretic expressions.*

***Keywords:** Achaemenid Empire, Cultural Interactions, Silk Road, Royal Road, Religious Exchange, Administrative Policies, Trade Networks, Local Cultures, Cultural Synthesis, Archaeological Findings, Historical Sources, Cultural Heritage.*

INTRODUCTION

Central Asia, a region renowned for its diverse cultures and ancient civilizations, witnessed significant cultural interactions during the period of the Achaemenid Empire. The Achaemenids, a powerful dynasty that emerged in Persia during the 6th century BCE, expanded their dominion across vast territories, including parts of present-day Central Asia. This article delves into the multifaceted cultural exchanges that occurred as a result of the Achaemenid rule in the region. [2]

Throughout this article, we will explore the various dimensions of cultural interactions that unfolded during the Achaemenid era in Central Asia. From the propagation of Zoroastrianism to the dissemination of the Aramaic language for administrative purposes, we will investigate the religious, linguistic, and administrative influences exerted by the Achaemenids. [1] Additionally, we will examine how Central Asia's position as a hub of trade and cultural exchange enriched artistic expressions, architectural styles, and educational practices. [5]

While the Achaemenid Empire's influence was significant, we must also acknowledge the resilient nature of the local cultures. Despite the cultural exchanges, many Central Asian traditions remained intact, leading to a fascinating coexistence of diverse identities and belief systems.

Through a comprehensive analysis of historical sources, archaeological discoveries, and cultural evidence, this article aims to provide a nuanced understanding of the intricate cultural interactions that shaped Central Asia during the period of the Achaemenid Empire. [18] By uncovering the intricate tapestry of influences and syncretic expressions, we can gain deeper insights into the region's rich historical legacy and the enduring impact of the Achaemenid Empire on the cultural heritage of Central Asia.

METHODS

To investigate the cultural interactions in Central Asia during the period of the Achaemenid Empire, this article employs a multi-faceted research approach, drawing on various sources and methodologies to offer a comprehensive understanding of the subject matter. The following methods have been utilized: literature review, archaeological analysis, historical written sources, art and architecture study, epigraphic analysis, religious studies, geographical mapping, synthesis of cultural data.

By combining these methodologies, this article presents a comprehensive analysis of the cultural interactions that occurred during the Achaemenid Empire's presence in Central Asia. [14] The use of diverse research methods strengthens the validity and

reliability of the findings, offering readers a well-rounded and nuanced exploration of this historically significant era of cultural exchange.

RESULTS

The Achaemenid Empire's religious policy of tolerance allowed various religious practices to coexist in Central Asia. While Zoroastrianism was propagated by the Persian rulers, local belief systems and deities continued to be revered. [15] This resulted in a unique syncretism, where elements of Zoroastrianism blended with indigenous Central Asian religious traditions.

The administrative use of the Aramaic language had a profound impact on Central Asian regions under Achaemenid control. Aramaic inscriptions found in these areas indicate its adoption as the official administrative language, influencing local linguistic practices and scripts. [3]

Persian architectural elements, such as columned halls and palaces, were integrated into local Central Asian buildings and monuments. [10] The syncretic architectural styles reflected a fusion of Persian aesthetics and indigenous designs, showcasing cultural exchange through art.

Central Asia's position as a trade hub along the Silk Road facilitated extensive cultural exchange. The movement of people, goods, and ideas between different regions contributed to the enrichment of local cultures with foreign influences, including Persian customs and traditions. [11]

The Achaemenid administrative system influenced local governance in Central Asia. Satrapies were established to govern the region, and Persian administrative practices were likely adopted, while still maintaining some aspects of local autonomy.

Despite the cultural interactions, Central Asian cultures maintained their distinct identities and traditions. [9, 13] Local artistic expressions, religious practices, and languages continued to thrive alongside Persian influences, showcasing the resilience of Central Asian heritage. [16]

The cultural interactions during the Achaemenid period laid the foundation for enduring cultural legacies in Central Asia. Elements of Persian culture, such as

language, religion, and art, persisted in the region long after the fall of the Achaemenid Empire.

Central Asia became a melting pot of cultures, fostering a vibrant and diverse society. The intermingling of various cultural elements from the Achaemenids and neighboring civilizations contributed to the richness of Central Asian cultural heritage. [4]

Overall, the results highlight the intricate and multifaceted nature of cultural interactions in Central Asia during the Achaemenid period. [7] The exchange of religious beliefs, languages, art, and governance practices fostered a dynamic cultural landscape that continues to shape the region's identity to this day. The Achaemenid Empire's legacy as a conduit for cultural exchange left a lasting impact on Central Asia, making it a pivotal era in the region's history.

DISCUSSION

The examination of cultural interactions in Central Asia during the Achaemenid Empire reveals a complex and multifaceted exchange between the Persian rulers and the local populations. The results indicate that the Achaemenid Empire's policies of religious tolerance, linguistic influence, and administrative governance played a pivotal role in shaping the cultural landscape of the region. These findings shed light on the dynamic interplay between different civilizations and the enduring impact of the Achaemenid legacy on Central Asian heritage. [8]

Religious syncretism emerges as a significant outcome of cultural interactions during this period. The coexistence of Zoroastrianism with indigenous religious beliefs in Central Asia demonstrates the empire's flexibility in allowing diverse faiths to flourish. The amalgamation of Persian and local religious elements showcases how cultural exchanges fostered a unique spiritual landscape, where different belief systems coexisted and influenced one another.

Art and architecture also exemplify the fusion of Persian and Central Asian cultural expressions. The incorporation of Persian architectural elements into local buildings reflects the adaptability and openness of both societies to cross-cultural

influences. [17] This architectural syncretism not only exemplifies the exchange of artistic styles but also demonstrates how cultural interactions led to the development of unique and regionally distinct architectural forms.

The long-term impact of cultural interactions during the Achaemenid period is evident in the enduring cultural legacies of Central Asia. Elements of Persian culture, such as language, religion, and art, persisted in the region long after the fall of the Achaemenid Empire. The cultural exchange during this period laid the groundwork for the diverse cultural identities that characterize Central Asia today. [6]

CONCLUSION

In conclusion, the cultural interactions in Central Asia during the Achaemenid Empire were a complex interplay of religious, linguistic, artistic, and administrative exchanges. The Achaemenids' policies of religious tolerance, linguistic influence, and administrative governance, coupled with the region's role as a trade crossroads, contributed to the rich cultural heritage that continues to shape Central Asia's identity. The study of this historical era not only provides insights into the past but also offers valuable lessons on how cultural exchange and syncretism can foster resilience and cultural diversity in a region.

REFERENCES

1. Alimovich, I. M. (2021). The Role of Avesta in Reconstructing the Historical Geography of Ancient Bactria. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(9), 70-72.
2. Briant, P. (2018). The Achaemenid Empire. In *From Cyrus to Seleukos* (pp. 203-226). Brill.
3. Francfort, H. P. (1988). Central Asia and Eastern Iran. *Cambridge Ancient History*, 4, 165-193.
4. Genito, B. (1998). The Achaemenids in the history of Central Asia. In the archaeological map of the Murghab delta. *Preliminary reports 1990-95. reports and memoirs, series minor vol. 3*, pp. 149-158.

5. Isarov U. I. Reviews About Early Nomads In Central Asia //The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – С. 18-26. Doi: 10.37547/tajir/Volume02Issue09-03
6. Isarov, U. (2023, January). Migrations of Dakh tribes in Central Asia. In international scientific conference" innovative trends in science, practice and education" (Vol. 2, No. 1, pp. 56-65).
7. Isarov, U. I. (2019). REVIEWS OF BACTRIAN IRRIGATION SYSTEM IN THE BRONZE AGE. Ўтмишга назар журнали, 17(3), 25-31.
8. Isarovich, I. U., & Shodievich, K. S. (2020). The role of numismatic sources in teaching of history. Science and Education, 1(1), 274-279.
9. Kholiyarov, T. C. (2019). About new studies of historical geography on historical studies of northern bactria. Ўтмишга назар журнали, 20(2).
10. Lhuillier, J., & Boroffka, N. (2018). A millennium of History: The Iron Age in Southern Central Asia (2nd and 1st millennia BC). Dietrich Reimer Verlag.
11. Poyonov, A. B. (2023). Ancient Bactria in greek sources. Scholar, 1(17), 121-127.
12. Shahbazi, A. (2012). The Achaemenid Persian Empire (550–330 BCE).
13. Tulkinjon, K. (2020). About historiography of historical geography of northern Bactria. Journal of Critical Reviews, 7(18), 748-758.
14. Wu, X. (2020). Central Asia in the Achaemenid period. In The Graeco-Bactrian and Indo-Greek World (pp. 595-618). Routledge.
15. Xoliyarov, T. C. (2022). Significance of epigraphic sources “Naqsh-e Rostam” and “Cube of Zoroaster” in the historical geography of Bactria. Current research journal of history, 3(11), 7-12.
16. Xoliyarov, T. L. (2020). Historical geography of the population of northern Bactria. Theoretical & Applied Science, (4), 601-604.
17. Дандамаев, М. А., & Глуконин, В. Г. (1980). Культура и экономика древнего Ирана. М." Наука".
18. Луконин, В. Г. (1987). Древний и раннесредневековый Иран.

**BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA MA‘NAVIY
DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH JARAYONIDA
KITOBXONLIK DAN FOYDANALISH**

Masharipova Sevinch Gulmirza qizi

Nukus davlat pedagogika instituti talabasi

Masharipova0906@gmail.com

***Annotatsiya:** Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularni yuksak ma‘naviyatli inson bo‘lib yetishishida zarur bo‘lgan tushunchalar, kitobxonlik madaniyati haqida ma‘lumotlar keltirib o‘tilgan.*

***Kalit so‘zlar:** kitobxonlik, ma‘naviyat, renessans, islohot, qaror, dastur.*

Bugungi kunda mamlakatimizda kelajak avlodning ta‘lim-tarbiyasini yanada isloh qilish maqsadida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli 2022 — 2026-Yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi farmoni qabul qilindi. Ushbu farmonning V bobida “Mamlakatimizni chinakam ma‘naviyat va ma‘rifat, madaniyat o‘chog‘iga aylantirish uchun ta‘lim-tarbiyaning interaktiv usullarini qo‘llash” va “Yoshlar — Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” shiori ostida “Yangi O‘zbekiston — Uchinchi Renessans” g‘oyasining ro‘yobga chiqarilishini ta‘minlash maqsadi ilgari suriladi [1]. Qarorning ijrosini ta‘minlash maqsadida qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yoshlarning ilm olishi, o‘z kasbining yetuk mutaxassisi bo‘lib yetishishi uchun ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ma‘naviy va ma‘rifiy jihatdan komil inson qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatning taraqqiyoti insonlarning ongiga, aql-zakovati, axloq-odobiga ko‘p jihatdan bog‘liq

bo'ladi. Yaxshi tarbiya ko'rgan kishi eng avvalo el-yurtning, xalqning manfaatini o'ylaydi. Chunki har bir shaxsning baxt-saodati alohida, o'z holicha amalga oshmaydi. Atrofdagilar baxtli va farovon turmush kechirganlarida huzur-halovat hammaga tatiydi. Bu qoida qadim zamonlardan mavjud bo'lib, unga turli davrlarda turlicha amal qilib kelingan. Yoshlarning ta'lim-tarbiya olishlariga mas'ul bo'lgan barcha o'rinlarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish hayotiy ehtiyoj darajasiga ko'tarildi.

Darhaqiqat, kelajak avlodning ma'naviyatini yuksaltirishda kitobxonlikning o'rni nihoyatda katta. "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora tadbirlar dasturi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 13-sentabrdagi PQ-3271 sonli qarorining qabul qilinishi kitobxonlik borasidagi islohotlarning boshlanishi bo'ldi[2]. Ushbu qaror asosida kitobxonlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratildi. Shu jumladan, bugungi kunda yurtimizda "Yosh kitobxon" ko'rik tanlovi o'tkazib kelinadi. Ushbu tanlov 4 bosqichda tashkil qilinib, unga 10 yoshdan boshlab qatnashish imkoniyati mavjud. Respublika bosqichida g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar munosib tarzda rag'batlantiriladi. Bu kabi rag'batlantirishlar orqali yoshlarni yanada intiluvchan, ilmga chanqoq qilib tarbiyalash nazarda tutilgan.

